

**XOTIN -QIZLARNI QO'LLAB QUVVATLASH O'ZBEKISTON  
SIYOSATINING USTIVOR VAZIFASI.**

*Juraqulova Farangiz Turaqul qizi  
Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti  
III kurs talabasi*

Annotatsiya: Maqolada mustaqil O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat, ularning jamiyat ravnaqida o'z o'mniga egaliklari, ularga berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar haqida bayon qilingan. O'zbekiston tarixida ayollar doimo hurmat va e'tiborda bo'lganliklari, qadr topganliklari tarixiy misollar bilan asoslangan.

Kalit so'zlar: ayol, "ayollar daftari", gender tenglik, farmon, qonun, mukofot, e'zoz, imkoniyat, davlat siyosati.

Mustaqilik yillarida mamlakatimizda ko'plab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshidan kechira boshladi. Milliy qadriyatlarimiz asta sekin o'z o'mniga qaytdi. Shu davrlarga ayollarga bo'lган sharqona qarash urf-odatlar ham o'z joyiga qo'yila boshladi. Endi ayollar ojiza sifatida yuksaklarga ko'tarila boshladi. Ularning o'z erki qisman bo'lsada o'zliklariga qaytarildi. Endi ular ham jamiyatga manfatli ishlarda o'z hissalarini qo'sha boshladi. Nafaqat mustaqillik davrida, qolaversa tarixga nazar solar ekanmiz ayollarni hurmatini o'z o'mniga qo'yish va ularga nisbatan hurmat e'tibor cheksiz darajada bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Amir Temur hukmronligi yillarida ham ayollarning mavqeい yuksak bo'lган. Xon avlodiga mansub Saroymulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug'rog'i hisoblanib, "katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvonga sazovor bo'lган. Davlat va mamlakat idorasiga oid qurultoy, kengash ishlarida to'g'ridan-to'g'ri qatnashish huquqi bo'lмагани holda Saroymulkxonim u yoki bu masala yuzasidan Amir Temurga yozma tarzda murojaat etish imkoniga ega shaxslardan biri bo'lган. Odatda xat bilan davlat boshlig'iga murojaat etish huquqiga faqat chet ellik hukmdorlar ega ekanligini inobatga olsak, Saroymulkxonimning saroydagi mavqeyi naqadar baland bo'lganligini idrok etish qiyin emas. Ayolni, onani ardoqlash va qadrlash, hurmatini joyiga qo'yishdan iborat Temur va Temuriy qadriyatlar mustaqillik yillarida yangicha mazmun bilan boyidi.

Yurtimizda xotin-qizlarning davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya ishlari, tadbirkorlikda faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Fikrimizning yorqin tasdig‘ini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakat xotin-qizlariga nisbatan munosabatida ham ko‘rish mumkin. Chorak asr davomida ayollarni qadrlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosati darajasida turgan ustuvor masala bo‘lib kelgan. Xususan, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini shaklantirish va mustahkamlash borasida yurtimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning quyidagi so‘zlaridan bilishimiz mumkin "Barchamiz uchun aziz va mo‘tabar bo‘lgan ayol zoti haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor, bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta‘zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so‘zga eng munosib zot bu avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug’lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi. Xotin qizlarga e’tibor hamma vaqt barcha sa'y harakatlarimiz markazida bo‘lishi, hammamizning vazifamizga aylanishi kerak, dedi davlatimiz rahbari. Oilaga e’tibor aslida bu o‘zligimizga e’tibor demakdir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng qabul qilingan qonunlarimizda ayollar huquqlariga inson huquqining alohida ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deya e’tirof etilishi mamlakatimizda ayollar jamiyatning faol a’zosi sifatida barcha sohalarda keng qamrovli ishtirok etishining huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi. 1995 yili «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi Konvensiyaga qo‘silishi ham mamlakatimizda xotin-qizlar masalasiga jiddiy e’tibor berilganini ko‘rsatadi.

1993 yil mart oyida Mustaqil O‘zbekistonning birinchi ordeni ta’sis etilgan va u bevosita ayollarning manfaati bilan bog‘liq, “Sog‘lom avlod uchun” ordenidir. 1995 yil mart oyida Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilinadi. Yana shu bilan birga ayolni yanada ulug’lash va ularga imkoniyatlar yaratish maqsadida 1999-yil Birinchi prezidentimiz I.Karimov tamonidan ta’sis etilgan “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilgan.Zulfiya nomli davlat mukofoti ta’sis etilishi va unda ko‘plar xotin-qizlarning jalb etilishi etirofga loyiqdirlar. Shu kungacha ko‘plab iqtidorli qizlar bu tanlovda ishtirok etib, o‘zlarining ijodiy faoliyatini haqqoniy ravishda ko‘rsatib kelmoqda desak

mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilmu – fan, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarda ayollarning o'rni va roli ortib borganligini ham kuzatish mumkin.

Hoziri kunda siyosiy jaroyonlarga ham ayollarning salmog'ini ortib bormoqda. Biz bosib o'tgan ancha yil ilgariga nazar solar ekanmiz birinchi va ikkinchi jahon urushlari vaqtida ko'plab qizlarimiz o'zining mardonavor harakati va jasurligi bilan tarixda qoldi. Birgina, Zebo G'aniyeva shaxsiga to'xtab o'tar ekanmiz uning o'zbek xalqiga, o'zining qanchalar vatanparvarlik hissi ulug'vorligini ko'rsatib bergen. Asli, sirdaryolik bo'lган bu jasur qiz ikkinchi jahon urushida fashistlarga qarshi turib, birgina o'zi 28 ta fashistni otib o'ldirganiga guvoh bo'lганmiz. Bu jasorati bilan u birinchi o'zbek sneyperchi ayoli maqomini olgan. "Mardlik" ordeni bilan taqdirlangan. Mustaqillikka erishganimidan so'ng urush qahramoni bo'lган ayollar shaxsiyati ham e'tibordan chetda qolmadi. Ularni taqdirlash marosimlari o'tkazildi. Xususan, O'zbekiston Qahramonlari orasida 15 nafari ayollardir.

Shavkat Mirziyoyevning ayollarga nisbatan hurmat va e'tiborini har qadamda kuzatish mumkin. Prezidentimiz xotin-qizlarni har tamomlama qo'llab-quvvatlamoqda. Ularga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи PF-87-son Farmoniga ko`ra, O'zbekistonda "2030-yilgacha bo'lган davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar" doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida "Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" belgilangan<sup>1</sup>.

Qadimgi madaniyatga nazartashlaydigan bo`lsak, ayol zotiga faqat "ONA" sifatida qarashlar birinchi o`ringa chiqib qolgan edi. Ularning na ta`lim, na jamiyatda o'rni bor edi. Bu holat ayniqsa chekka qishloq va ovullardagi ayollarning psixologiyasi va qarashlarini qoloq qilib yubordi. Bu esa o`z navbatida farzandlar tarbiyasiga kuchli ta`sir qildi. Sababi ayol kishi uyda vaqtini bolalari bilan o'tkazadi, bu esa o`z navbatida farzandlariga ta`lim yoki ma`naviy jihatdan ozuqa berolmaganligini kuzatishlarimiz mobaynida amin bo'lганmiz. Jinsiylikka qarshi kurash BMTning "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish"to`g`risidagi konvensiyasida ham e`lon qilindi. O'zbekiston Respublikasida ham gender tenglik masalasida bir qator ijtimoiy-siyosiy qarashlar shakllantirilib

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи PF-87-son [Farmoniga](#)  
1-ilova

amalda ularni qo`llash va yanada takomillashtirish yuzasidan say harakatlar olib borilmoqda. Ayolning nafosati va nazokatli, vafo va sadoqatli, aql –zakovati va fidoiyligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot abadiyligiga asos bo`lib keladi. Shu bois ayolni e`zozlash, ayolga ehtirom ko`rsatish xalqimizga hos olivjanob fazilat hisoblanadi. Ayniqsa, yurtimizda aziz ayollarning sog`lom surriyot, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o`rni va xizmatlarini munosib qadrlash, ularga eng yaxshi sharoitlarni yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. O`tgan qisqa davr mobaynida xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyat va davlat hayotida faol bo`lishlarini rag`batlantirish borasida ko`plab amaliy ishlar qilindi. Ayniqsa, Prezidentimizning “Xotin-qizlarni qo`llab quvvatlash va oila institutini mustahkamlash” sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risidagi farmoni mazkur yo`nalishdagi ishlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Davlatimiz rahbarining oliy majlisi senati yigirmanchi yalpi majlisida so`zlagan nutqi xotin-qizlar masalasiga davlat siyosati darajasida qaratilayotgan e`tiborning yana bir yaqqol ifodasi bo`ldi. Qayd etish lozimki yurtimizda xotin-qizlar va gender tenglik masalalariga alohida ahamiyat berilayotganligi bir qator muhim omillar bilan bog`liq. Yurtimizda ayollar soni ulushi 46% ga boradi. Jumladan, ta`lim, sog`liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish kabi sohalarda mehnat qilayotgan hodimlarning har 10 nafardan 7 nafari ayoldir. Biroq oliy majlis palatalarida xalq deputatlari mahalliy kengashlarida davlat hokimiyati va boshqaruva organlarida rahbarlik va vakillik lavozimlarida faoliyat olib borgan xotin-qizlarimiz kamchilikni tashkil etayotgani ham sir emas.

Xalqaro hamjamiyatda keng foydalilaniladigan gender tenglik tushunchasi erkaklar hamda ayollar davlat va jamiyat hayotining barcha sohalaridan boshqaruva qarorlar qabul qilish va xavfsizlik sohalarida tenglik asosida ishtirok eta olishini nazarda tutadi. Malakatimizda xotin-qizlar va erkaklar tengligi mustahkam huquqiy asosiga ega. Mehnat qonunchiligidagi ham gender tengligi belgilangan. Gender tengligi tamoyillarini mustahkamlash maqsadida 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risidagi qonun mamlakatimiz ravnaqi yo`lida sobit qadam bo`lish aniq natijaga yo`naltirilgan maqsadli dasturlar ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu qonun 32 moddadani iborat: “Gender” statistikasi “Gender huquqiy ekspertiza”, “Jinsiy kamsitish” tushunchalari va turlari mazkur yo`nalishda vakolatli organlarning vazifalari va funksiyalari davlat boshqaruvida ishtiroki masalalarini qamrab olgan. Ishga qabul qilish, kredit olishda va tadbirkorlik bilan

shug`ullanishda gender tenglikni ta`minlash bo`yicha normalar belgilangan. Gender tenglik buzulishining oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar va javobgarlik masalalari va imkoniyatlar taminlshning asosiy prinsiplari belgilangan. Qonun birlashgan millatlar tashkilotining xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo`yicha konsepsiysi talablariga mos keladi. Bir so`z bilan aytganda, ushbu qonun erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta`minlashni tartibga solishda muhim qadam bo`ldi. Shu bilan birga o`qishga kirishda ham qizlarga alohida kvota ajratilishi belgilab qo`yilishi bularning barchasi mustaqillik tufayli qizlarning o`z erkining joyiga qo`yilishi edi. Magistratura bosqichida tahsil olayotgan xotin qizlar davlat granti asosida o`qishga kirishi belgilab qo`yilgan. Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo`lga qo`yish uchun 33 million so`mgacha kreditlar ajratildi, **ayollarни pensiya yoshiga to`lganligi sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo`shtish taqiqlanadi,** ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTMga kirish uchun tavsiyanoma berilishi, "Ayollar daftari"ga kiritilganlarga 40 mln 500 ming so`mgacha kredit berilishi mumkin, Ishlaydigan onalarga bolani ovqatlantirishga tanaffus berish, Xotin-qizlarning kasb o`rganishga qilgan xarajatlarini davlat to`lab beriladigan bo`ldi. **"Ayollar daftari"ga kiritilgan yolg`iz ayollarning farzandlari ham bog`chaga imtiyozli ro`yxat asosida qabul qilinadi.**

Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni davlat maktabgacha ta`lim muassasalariga qabul qilish bo`yicha davlat xizmatlari ko`rsatishning ma`muriy reglamentini tasdiqlash to`g`risida"gi qaroriga ko`ra, "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg`iz ayollarning bolalari davlat maktabgacha ta`lim tashkilotlariga ustunlik bilan qabul qilinish huquqiga egadirlar. **Faol va tashabbuskor xotin-qizlar "Mo'tabar ayol" ko`krak nishoni bilan taqdirlanadi,** Homilador ayollar, 3 yoshga to`limgan bolasi bor ayollarни ishga qabul qilishda dastlabki sinov qo'llanilmaydigan bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy yordam va ko`makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo`llab-quvvatlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi 2021 yil 28 aprel, 250-sonli qarori tasdiqlandi. Bu qaror asosida ko`plab ehtiyojmand oilalarga moddiy yordam ko`rsatishda davom etmoqda.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalanmoqdalar. Jamiyatda o`z o`rnini topib, davlatimizning yanada taraqqiy etishi uchun unumli mehnat qilmoqdalar.

Jamiyatimizda ilgari surilayotgan “uchinchi renesans” ning poydevorini yaratishda muhim hissa qo’shamoqdalar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи PF-87-son Farmoni.
2. Vikipediya "Gender roli" en.wikipedia.org
3. <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to‘g‘risidagi O‘RQ-562 02.09.2019
4. <https://review-uz.translate.goog/uz/post/o'zbekistonda-ayollarga-oid-imtiyozlar> -